

ISSIXONA XO`JALIGINI TASHKILLASHTIRISH VA YURITISH**Yerejevopa Gulbaxar Tajetovna**

q.x.f.f.d

(PhD) Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi

Va agrotekhnologiyalar instituti

Mevachilik, sabzavotchilik va polizchilik

Kafedra katta o'qituvchisi

Jumamuratova Juldiz, 2-guruh talabasi

Issiqxona xo'jaligini tashkillashtirish va yuritish

Annotatsiya: Inson faoliyatining barcha sohalarida zamonaviy texnika va texnologiya qanchalik taraqqiy etmasin xalqning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy-maishiy hayotini Issiqxona xo'jaligi ishlab chiqarishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: issiqxona, texnologiya, natija, xorij tajribasi, iqtisodiy samara.

KIRISH

O'zbekistonda jahon andozalari talablariga javob beradigan Issiqxona xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Aholining aksariyat qismi Issiqxonalarda istiqomat qiladi va ularning ko'pchiligi zarur bo'lgan malaka, ko'nikmaga va tajribaga ega.

Mamlakatda tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilish, imtiyozli kreditlar ajratish budjetdan moliyaviy ta'minlashni kengaytirish va boshqa iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Issiqxona xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan huquqiy asos yaratildi, jamoa, ijara va xususiy mulk tamoyillariga asoslangan shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari shakllandi¹.

Endigi vazifa Issiqxonada mahsulot yetishtiruvchilarda yerga, mulkka, yetishtirilgan mahsulotlarga egalik hissiyotini mustahkamlash asosida mahsulot yetishtirishni ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash, Issiqxona xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishga e'tibor qaratishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Korxonada ishlab chiqarishni samarali tashkil etish bu uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadni aniqlash, ishlab chiqarishning istiqbolli dasturini ishlab chiqish, tashkiliy va boshqaruv tizimini to'g'ri belgilash, xo'jalikni oqilona yurita olishni asoslash, zaruriy resurslarni shakllantirish, xo'jalik ichki iqtisodiy munosabatlarini to'g'ri belgilash, hisobot va nazorat, hamda rejalashtirishning samarali tizimini joriy qilish, sifatli tovar ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish, ishlovchilarga qulay ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Shuningdek Issiqxona xo'jaligining barcha sohalarida ishlab chiqarish tamoyillari, usullari va shakllarini ishlab chiqishda issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish va yuritish» fani juda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda iqtisodiy. islohotlar chuqurlashayotgan hozirgi davrda xo'jalik tashkilotchisi Issiqxona xo'jaligining qaysi tarmog'ida, qanday vazifada ishlamasin ishlab chiqarish taraqqiyoti qonuniyatlarini, korxonaning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilishi asoslar va usullarini, xo'jalikni yuritish tizimining shakli, mavjud resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan tamoyillarini, o'simlik va chorva mahsulotlari ishlab chiqarish-texnikasi va texnologiyasini, mehnatni tashkil etish bilan moddiy rag'batlantirish shakllarini yaxshi bilishi zarur. Chunki mamlakatimiz aholisining turmush darajasining o'sishi, oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga bo'lgan talabi, yil davomida ularni sabzavot va ko'katlarga, gullarga, ko'chatlarga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishda issiqxonalarning roli tobora o'sib bormoqda.

O'zbekistonda issiqxonalarda sabzavotlar, ko'chat va gullarni yetishtirishga

¹ Abdullaeva H.R. "Plyonka ostida yetishtirish mo'may daromad manbai", "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. 2017. №2 17-b.

xo'jaliklarning qo'shimcha manbayi sifatida qarab kelingan. Ammo hozirgi kunda aholini yashash sifatini oshishi, yil davomida vitaminlarga boy sabzavotlarga va sitrus mevalariga bo'lgan talabning oshishi, bu sohada ilg'or xorij texnologiyalari va tajribalarini keng qo'llashni taqozo etmoqda. Shuning uchun bu soha uchun malakali mutaxassislarni o'qitish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Mutaxassis-agronom, texnologlar ham yellaricha iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Negaki tarmoq ishlab chiqarishi tashkillashtirilgan ekan, texnologik va tashkiliy qarorlarning iqtisodiy samaradorligini hisobga olish, ularga o'z vaqtida zaruriy tuzatishlarni kirilish ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Issiqxona xo'jaligi mutaxassisiga qo'yiladigan asosiy talablar: Issiqxona xo'jaligi ishlab chiqarishi nazariyasi va amaliyotini chuqur bilish; ishga yangicha va ijodiy yondashish yo'llarin izlash; tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish; jamoa ishini oqilona tashkil etishni bilishdan iboratdir.

Ekinlarni mavsumdan tashqari fasllarda o'stirish maqsadida sun'iy mikroiklim yaratish yoki tabiiy mikroiklimni yaxshilash uchun qurilgan inshootlar va uchastkalar yopiq (himoyalangan) maydon deyiladi.

Bunday maydonlar quyidagi maqsadlar uchun xizmat qiladi:

Birinchidan: Dalada ertagi sabzavotlar etishtirish uchun ko'chatlar tayyorlash.

Ikkinchidan: Yilning imkoniyatsiz fasllarida vitaminli sabzavotlar etishtirish.

Uchinchidan: Sabzavotlar assortimentini (turini) kengaytirish.

Yopiq maydonlar qayd etilgan maqsadlarni hal etish uchun har xil bo'ladi. Asosan himoyalangan inshootlar, maydonlar tuzilishining murakkabligi va ekinlar uchun qulay sharoit yaratish usullariga qarab 3 turga bo'linadi²:

1. Isitilgan yer.

2. Parniklar.

3. Teplitsalar (issiqxonalar).

XULOSA VA MUNOZARA

Umuman olganda yopiq maydonlar yordamida sabzavotchilikning asosiy vazifalaridan biri - aholini yil davomida (uzluksiz) yangi sabzavot bilan ta'minlash dolzarb muammosi hal etiladi. Shuning uchun respublika Vazirlar Mahkamasi uni kengaytirishga, samaradorligini oshirishga katta e'tibor bermoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda mayda parnik-teplitsa xo'jaligi o'rniga mexanizatsiya, avtomatizatsiyaga asoslangan yirik sabzavot fabrikalari, kombinatlari barpo etildi va etilmoqda. Agar 1965 yil O'zbekistonda atigi 3,7 gektar oynavand issiqxona va 24,4 gektar parnik, 1970 yili issiqxona-66,6 ga, parniklar 56,7 ga, vaqtincha plyonka ostiga olingan yyer 351 gektarni tashkil etgan bo'lsa, 1980 yil boshida oynavand sabzavot issiqxonalar - 230 gektarni, plyonkali maydonlar esa 2000 gektarni, 2020 yilda esa 294 va 3180 gektarni tashkil qildi.

Hozirgi kunda respublika teplitsa xo'jaliklarida 40-50 ming tonna, har bir kvadrat metrdan 12-14 kg, aholi jon boshiga 3,2-3,5 kg sabzavot etishtirilayotgan bo'lsa, yaqin kelajakda uni 9,0 kilogrammga etkazishdek ulkan vazifa turibdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-4575-son Qarori.
2. Abdullaev R.M., Abdullaeva H.R. Qulupnay yetishtirish. Toshkent-2021. 7-17 b.
3. Abdullaeva H.R. "O'zbekistonda yer tuti o'simligi". Toshkent 2017. –b 144.
4. Abdullaeva H.R. "Plyonka ostida yetishtirish mo'may daromad manbai", "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. 2017. №2 17-b.
5. Бельх А.М. Земляника в Сибири. –Новосибирск, 2000. –с.73-103.
6. <https://myday.uz/uz/eda/qulupnayning-foydali-hususiyatlari>
7. www.ziynet,yz

² Abdullaev R.M., Abdullaeva H.R. Qulupnay yetishtirish. Toshkent-2021. 7-17 b.